

10-sinf. Tarbiya fanidan 1- chorak BSB nazorati. Loyiha ishi.

Mavzu: Agar men ...

Eslatma: Loyiha ishi mavzusini o'quvchilar o'zlari ham tanlashlari mumkin.

Format: Loyiha ishi (videorolik, slayd, so'rovnomalar o'tkazish, tadqiqotlar olib borish va boshqalar tavsiya etiladi)

Fanlararo integratsiyalashuvi: Tarix, adabiyot, informatika, chizmachilik ...

Muammo:

- mahalliy muammolarga o'z vaqida yechim topish;
- boshqaruv tizimida yangicha yondoshuvlar zarurligi;
- intellektual salohiyatga ega bo'lgan kadrlarning yetishmasligi;

Maqsad:

- o'quvchilarda kelajakka daxldorlik hissini uyg'otish;
- jismoniy va intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish;
- yashab turgan hududini istiqboldagi rivoji uchun hissasini qo'shish;
- bunyodkorlik ishlariga bosh bo'lish;
- hamkorlikda ishlashni shakllantirish va rivojlantirish.

Loyihani amalga oshirish uchun qo'yiladigan talablar:

- a) kelajakda mahalla raisi, hokim, vazir ... bo'lganingizda qanday ishlarni amalga oshiringizni rejasini tuzing;
- b) mahallapay boshqaruv tizimini o'rganing, uning oqsayotgan tomonlarini aniqlang va mahalla boshqaruv tizimini isloh qilishni rejalashtiring;
- c) hududlarni iqtisodiy rivojlantirish uchun biznes loyihalarini yarating.

Loyiha ishi bo'yicha o'quvchilarda shakllanadigan ko'nikmalar:

- biznes va tadbirkorlik g'oyalarini ilgari sura oladi;
- kreativ sifatlarini namoyon qiladi;
- ma'naviy tahdidlarni anglaydi;
- daxldorlikni his etadi va faol ishtirok etadi;
- o'zining fuqarolik burch va huquqlarini biladi;
- bir-birini takrorlamaydigan g'oyalarni tadbiq qiladi;
- kreativlik;
- nutq madaniyati;
- jamoa bilan ishlash ko'nikmalari (guruhda 4-7 nafar o'quvchi ishtirok etishi tavsiya etiladi).

Loyiha ishining bosqichlari (xarita)

O'qituvchiga tavsiyalar:

- jamoalarni shakllantirish;
- muammoli topshiriqlarni bayon qilish;
- baholash mezonini e'lon qilish;
- bajarish muddatini belgilash (loyiha ishi uzoq muddatda bajariladi).

O'quvchiga tavsiyalar:

- ma'lumot to'plash;
- loyihani eskizini yaratish;

- loyihani yaratish;
- tahrirlash;
- o‘qituvchi tavsiyalarini olish;
- qayta tahrirlash;
- taqdim etish.

Jamoalarni shakllantirish:

- o‘qituvchi tomonidan shakllantirish;
- qur’a tashlash orqali shakllantirish;
- o‘quvchilar tomonidan shakllantirish (ayrim o‘quvchilarning jamoalarga qo‘shilmay qolish holatiga yo‘l qo‘ymaslik kerak).

***Eslatma:** O‘quvchilar oldindan jamoalarga bo‘linib loyiha ishiga tayyorlanadilar. BSB – 1 kuni loyiha ishini taqdim etib baholanadilar.*

Loyiha ishini baholash mezonlari		
1	Loyiha mavzusi va bajarish bosqichlarining maqsad bilan uyg‘unligi	10 ball
	– loyiha mavzusi va bajarish bosqichlari (xaritasi) loyiha maqsadini yoritishga xizmat qilgan, maqsadga erishish uchun noodatiy yondashilgan hamda maqsadga muvofiq tarzda taqdim etilgan bo‘lsa	9-10 ball
	– loyiha mavzusi va bajarish bosqichlari (xaritasi) loyiha maqsadini yoritishga xizmat qilgan, ammo juz’iy kamchiliklar sabab maqsaddan biroz og‘ish kuzatilgan bo‘lsa	4-8 ball
	– loyihaning bajarish bosqichlari (xaritasi)da ketma-ketlikka amal qilinmagan, bu holat loyiha maqsadining yoritilishida aks etgan bo‘lsa	1-3 ball
2	Muammo va yechim	10 ball
	– muammoni to‘g‘ri aniqlab yechim yopgan bo‘lsa	9-10 ball
	– aniqlangan muammoga reja asosida yondoshilgan bo‘lsa	4-8 ball
	– reja belgilangan vazifalarga muvofiq tuzilgan bo‘lsa	1-3 ball
3	Jamoa bo‘lib ishlash	10 ball

	– jamoa maqsadga erishish uchun bir-birini to‘ldirsa, o‘zining hamda sheriklarining vaqtini qadrlasa, navbat bilan so‘zlasa, taqdimotda jamoadoshining fikrini tinglab, qo‘llab-quvvatlasa	9-10 ball
	– jamoa bir maqsad yo‘lida bir-birini to‘ldirsa, o‘zining hamda sheriklarining vaqtini qadrlasa-da, taqdimotda sustkashlikka yo‘l qo‘ysa	4-8 ball
	– jamoada tarqoqlik kuzatilsa, barcha o‘z fikrini ma’qullasa va buning natijasi taqdimotda aks etsa	1-3 ball
4	Taqdimotchining shaxsiy xislatlari	10 ball
	– loyiha ishi natijalarini taqdim etishda nutqiy savodxonligi yuqori bo‘lib, aniq va lo‘nda bayon etilsa	5 ball
	– xulq atvor qoidalariga amal qilib, vatanparvarlik ruhida yondoshilgan bo‘lsa	5 ball
5	Tahlil va xulosa	10 ball
	– to‘g‘ri tahlil qilingan bo‘lsa	4 ball
	– tahlil natijalari bo‘yicha xulosa chiqarilgan bo‘lsa	4 ball
	– tahlil va xulosa natijalarini ijtimoiy hayotda qo‘llash mumkin bo‘lsa	2 ball
JAMI:		50 ball

